

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI QAYTA VA IJODIY HIKOYA QILISHGA O'RGATISH USULLARI

Ismatova Niginabonu Azamat qizi

Maktabgacha va Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan ishlashda badiiy so'z katta o'rin tutadi. Bolalar xalq ertaklari, she'r, hikoyalar eshitishni yaxshi ko'radilar. Bolalar adabiyoti, avvalo o'zining qiziqarli mazmuni, badiiy obrazlarining go'zalligi, tilning ifodaliligi, she'riy so'zlarning musiqaviyligi bilan bolalarga quvonch baxsh etadi. Ayni vaqtda u bolalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Buyuk rus demokratik V.G. Belinskiy bolalar kitobi tarbiya uchun yoziladi, «Tarbiya – buyuk ish, u insonning taqdirini hal qiladi» - degan edi. Badiiy adabiyotning qimmatini bolaning har bir jihatdan o'sishiga ta'sir ko'rsatishidir. Badiiy adabiyot bolaga jonajon o'lka tabiatining kishilarning mehnati va hayotini, ularning qilayotgan ishlari va ko'rsatayotgan qahramonliklarini, bolalar hayotidan olingan voqyealar, bolalarning o'yinlari, ermaklari va qilayotgan mehnatlarini himoya qilib beradi. Kishilarning ichki dunyosini yoritib, ularning xarakterlari, his-tuyg'ulari, xatti-harakatlarini, shuningdek, tasvirlangan hodisalarga yozuvchining munosabatini ko'rsatib, badiiy adabiyot asarlari bolani hayajonlanishga, asar qahramonlariga achinishga yoki ularni qoralashga majbur qiladi. Eng yaxshi badiiy adabiyot asarlari bolalarda biror narsaga yaxshi-yomon, adolatli-adolatsiz, to'g'ri-noto'g'ri deb, o'zlarigaxos bir yordam beradi

Hikoya tuzish jarayonida bolalarning narsalarni ko'rib idrok etishi, eslab hikoya qilish, tasavvur etib hikoya qilish kabi qismlarga bo'linadi.

Ko'rgan narsalarni idrok etib yoki eslab hikoya qilish aniq materiallar asosida tuziladi. Ulardan tasavvur etib hikoya qilish – ijodkorlikni talab qiladi. Bu hikoyalarning hammasi ham nutqning bog'liqligi va maqsadga yo'naltirilganligi bilan muhimdir. Hikoya qilish usullari xilma-xildir. Jumladan, tarbiyachi tomonidan hikoyaning qisqacha namunasi berilishi mumkin. Bunda hikoyaning bir qismi tuziladi yoki o'yin tarzida bayon etiladi. So'ng bolalarning o'zlari hikoya tuzadilar. Masalan, «Bizning vrach» hikoyasi qanday yaratilganligini ko'rib chiqaylik. Mashg'ulotning maqsadi tibbiy yordam ko'rsatish namunasida bemorlarga g'amxo'rlik tuyg'usini tarbiyalash orqali bolalar nutqini rivojlantirishdan iborat. Hikoya o'yin jarayonida o'yinchoqlar vositasida bemorga tibbiy yordam ko'rsatish, «bemor», «tez yordam» xodimlari bilan muloqot asosida tuziladi. Sardorning hikoyasi: «Sanjar qovunni ko'p yeb qo'yib, qorni og'rib qoldi. Otasi «tez yordam» chaqirdi. Vrach kelib, bemor Sanjarga tezkor tibbiy yordam ko'rsatdi. Sanjarning otasi, onasi vrachga tashakkur bildirdilar».

Bolalar kitobning qiziqarli mazmuni do'stlik, halollik, mehnatsevarlik, o'rtoqlik namunalari ko'rsatadi. Bolalar badiiy adabiyot asarlari estetik jihatdan tarbiyalashga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Badiiy asarlarning yorqin obrazlari, jonajon tabiatning shoirona manzaralari, she'rlarning musiqaviyligi, tilning o'tkirligi, ifodaliligi bolalarga yoqadi. Bolalar badiiy so'z qudratini his etadilar, uncha katta bo'lmagan ertaklar, xalq ashula hamda she'rlarini tez vaosongina eslab qoladilar. Badiiy so'zga muhabbatni ilk yoshdan boshlab tarbiyalab borish zarur, bola bog'chadan maktabga ana shu muhabbat bilan o'tadi va keyinchalik Vatan adabiyotini sevadigan bo'lib qoladi. Xalq og'zaki ijodi – ertaklar, topishmoqlar, maqollar, qo'shiqlarning ko'plari uzoq o'tmishda va hozirgidan tubdan farq qiladigan voqyeligidan tubdan farq qiladiganturmush sharoitida yaratilgan xalq ijodi asarlaridan faqat tarbiya vazifalariga javob beradiganlari tanlab olinadi. Aql-idroki yoki jasurligi bilan, sabr-toqati yoki mehnati bilan har qanday qiyinchiliklarni yengadigan dovyurak, vijdonli qahramonlar ishtirok etadigan ertaklardan bolalar juda hayratlanadilar, bunday ertaklar bolalarni ijodiy

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

qahramonlarga nihoyatda hayrixoh bo'lishga, yovuzlikka, nohaqlikka, qizg'anchilikka, makr-xiylaga nisbatan murosasiz bo'lishgamajbur etadi. Bugungi kunda yosh avlodga ta'lim tarbiya berishda o'quvchilar ongiga milliy g., oyaning asosiy yo'nalishlarini singdirish badiiy ta'lim vositalaridan samarali foydalanish, rassomlarning hayoti va ijodiy faoliyatini o'rganish, o'quvchilarning ma'naviy, estetik dunyoqarashlarini shakllantirish bilan birga ularda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda fanlararo aloqadorlik prinsipidan foydalanish ham yaxshi samara beradi. O'rganilayotgan mavzu bo'yicha musiqa, tarix, texnologiya, informatika, adabiyot (musiqa asarlari eshitib rasm ishlash, tasviriy san'at va musiqa o'rtasida aloqa o'rnatish), adabiyot (she'riy satrlar o'qish, topishmoq, ertak, illyustratsiyalar chizish), tarix (san'at asarlari yarratilishini o'rganish, tarixiy voqyealar, mavzuli voqyeaband mavzularni o'rganishda janglar tasviri va h.k....), texnologiya (o'yinchoqlar, kelgusida naqsh ishlash uchun idishlar, qutichalar yasash), informatika fanlari bilan bog., liq grafik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Yuqoridagi fikr asosida adabiyot va tasviriy san'atning o'zaro aloqasi ya'ni ertak va badiiy adabiyotlarga ishlangan illyustratsiyalarning bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati haqida to'xtalib o'tsak. Bolalarda kitobga qiziqish erta maktabgacha ta'lim davridayoq paydo bo'ladi. Buni biz bolalarning avvaliga shunchaki sahifalarni varoqlashi, kattalar o'qishini tinglashi va illyustratsiyalarni tomosha qilishida ko'rishimiz mumkin. Bolalarda obrazga qiziqish paydo bo'lishi bilan matnga qiziqish paydo bo'la boshlaydi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolada idrok o'ta faol bo'ladi. Bola o'zini qahramon o'rniga qo'yadi, xis- tuyg'ulari faollashadi, dushmanlari bilan kurashadi.

Bolalar hikoyaning qiyin turi, ya'ni tarbiyachi taklif etgan mavzu bo'yicha hikoyalar tuza olishlari va bu hikoyalar va bu hikoyalar turli-tuman bo'lishi uchun tarbiyachi bu usuldan foydalanishi mumkin. Tarbiyachi bolalarga mavzu va rejani beradi. Mavzu: Qizcha mushukchani qanday topdi?

1. Qizcha mushukchani qanday topdi .

2 Mushukcha qanday edi?

3. Qizcha u bilan nima qiladi? Bolalarning joyida turib bergan javoblari hikoya bo'lmaydi, u bir necha yoki bitta jumladir. Maqsad – hikoyalarning turli-tuman bo'lishi mumkinligini ko'rsatishdir. Tarbiyachi reja tuzayotganda jamoa bo'lib muhokama qilish uchun eng qiyin savollarni oldindan aniqlashi lozim. Qismlar bo'yicha hikoya tuzish. Odatda bu usul mazmuni qismlarga oson bo'linadigan suratlar bilan ishlashda foydalaniladi. Suratlar bilan ishlashda tarbiyachi oldindan uni shartli ravishda qismlarga bo'ladi va bola biror qism haqida so'zlab berishi lozim. Umumiy jamoa tajriba asosida hikoya qilishda tarbiyachi oldindan mavzuni juda mayda qismlarga bo'ladi, Masalan, «Bizning tipratikon» mavzusidagi tasviriy hikoyani tuzishda tarbiyachi bolalarni tipratikon haqida hamma narsani birdan so'zlamasdan, hammasini esga olish uchun tartib bilan so'zlaymiz deb ogohlantiradi. So'ngra tarbiyachi har bir qismga reja beradi. Hozir bolalar eslang tipratikonning usti nima bilan qoplangan? Uning tumshug'i qanday? U qanday yuradi? Bu reja bolalarning ikkita-uchta hikoyalardan keyin boshqa qismga o'tiladi. Bizda tipratikon qayerda yashaydi, uning qafasida nima bor, u nima uchun kerak aytib bering. Bolalarning javobidan keyin hikoyaning uchinchi qismiga o'tiladi. Ayting-chi biz tipratikonni nima bilan boqdik. Kim uni parvarish qiladi, qanday parvarish qildi va hikoyaning oxirida bolalardan biz o'z tipratikonimizni kimga sovg'a qildik, o'rta guruh bolalari bizga nima dedilar? deb so'rash mumkin. Jamoa hikoya uchun «Bolalar bog'chasida», «Yangi yil archasi», «Hayvonot bog'iga ekskursiya», «Shahar atrofiga sayohat» va boshqa mavzularni tanlab olish mumkin. Mashg'ulotning oxirida tarbiyachi mavzuning hamma qismlari bo'yicha bitta umumiy

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

reja beradi va yaxshi hikoya qiladigan 1-2 bola hammasi haqida birdan gapirib beradi. Masalan, «Bizning tipratikon» hikoyasida har bir qism rejaları bo'yicha bolalar hikoya qilganlaridan keyin mashg'ulotning oxirida tarbiyachi bunday reja beradi:

1. Bizning tipratikonimiz qanday edi?
2. Biz uni qanday parvarish qildik?
3. Biz uni kimga sovg'a qildik?

Savollar berish – bu keng tarqalgan usul. Lekin hikoya qilishda u ikkinchi darajali rol o'ynaydi. Savollar odatda javob berayotgan bolaga yoki butun guruhga hikoya tugagandan keyin uni aniqlash yoki to'ldirish uchun beriladi. Savollar metodik jihatdan to'g'ri bo'lishi lozim. Baland ovoz bilan hamma bolalarga qarata javob berish uchun bolani chaqirishdan oldin pauzaga rioya qilish kerak. Aytib turish – hikoya qilish jarayonida bola yanglishib qolgan vaqtda savol berishdan ko'ra, so'zni yoki gapni aytib turishdan foydalanish yaxshiroqdir. Aytib turish yoki to'g'rilash yetarli darajada baland ovozda hayrixohlik ruhida bo'lishi lozim. To'g'rilangan so'z yoki jumlaning bolaga takrorlash shart emas. Chunki bola hikoyaning davomini esdan chiqarib qo'yishi mumkin. Bolalar hikoyasini baholash – o'rgatuvchi usuldir. Shuning uchun u mashg'ulotning oxirida emas, balki mashg'ulot jarayonida qo'llaniladi. Baholash faqatgina hikoyasi baholanayotgan bolagagina ta'sir etib qolmay, qolgan bolalarga, ular tuzishi lozim bo'lgan hikoyalarga ham ta'sir etadi. Bolalar bahoni tinglab tarbiyachi maqtaganlarga taqlid qiladilar. Har bir bolaning hikoyasi mufassal baho berish shart emas. Lekin ba'zi hikoyalarning qimmatli tomoni, ya'ni mustaqilligi, izchilligi ovoz kuchi, javob berganda turishi va hokazalar ajratib ko'rsatishi tavsiya etiladi. Kichik guruh bolalarida boshlang'ich monolog tarzidagi nutqiy o'stirishda suratdan keng foydalanishadi. Bolalar suratlarni mashg'ulotlarda ko'radilar. Kundalik turmushda ham kitobdagi rasmlarni, suratlarni, taklifnomalarni ko'zdan kechiradilar. Yilning boshida birinchi kichik guruhda bolalar tarbiyachining savoliga xor bilan javob bera oladilar. Tarbiyachi o'z vaqtida bolalarga yordam berishi, ya'ni aytib turishi yoki birga javob berishi lozim. O'rta guruhda tarbiya dasturi asosida bolalarni hikoya qilishga o'rgatishning mazmuni bir muncha murakkablashadi. O'rta guruh bolalari faqatgina yaxshi tanish ertak va hikoyalarni kayta hikoya qilishga qolmay, mashg'ulotda birinchi marta o'qib berilgan asarlarni ham qayta-qayta hikoya qilishga, predmetlar, o'yinchoq, o'simlik, kiyimlarning ko'prok xarakterli belgilarini tasvirlab berishga o'rganishlari lozim.

Agar bolalarga yaxshi tanish ertak va hikoyalarni qayta hikoya qilish malakasi kichkina guruhdan tarkib topa boshlasa, birinchi marta o'qib berilgan adabiy asarni qayta hikoya qilish malakasi esa faqat o'rta guruhda tarkib topa boshlaydi.

Qayta hikoya qilish uchun asarlar tanlashda quyidagi talablarni hisobga olish tavsiya etiladi:

- a) adabiy asar bolalarni ruhan tarbiyalash ishiga xizmat qilishi;
- b) adabiy asarlar o'zining mazmuniga ko'ra bolalarga tushunarli va ularning tajribasiga yaqin bo'lishi;
- d) adabiy asarlar badiiy bezatilgan bo'lishi lozim. Agar mazmunan aniq tuzilgan, tushunarli, ifodali tilda qisqa, aniq jumlar bilan yozilgan bo'lishi kerak.

Tarbiyachi bu talablarga asoslanib qayta hikoya qilish uchun asarlarni to'g'ri tanlashi hamda bolalarning so'zlab berish malakalarini ham hisobga olishi kerak. Asarni tanlab olgandan so'ng tarbiyachi uni ifodali o'qishga o'rganish unda bolalar uchun noaniq bo'lgan so'zlarni ajratishi

va ularni yaxshiroq tushuntirish yo'llarini o'ylab ko'rishi lozim. Mashg'ulotning tuzilishini belgilashda tarbiyachi unga quyidagi qismlar kirishi mumkinligini esda saqlashi kerak:

2. Matnni birinchi o'qib berish.
3. Asar yuzasidan suhbat o'tkazish.
4. Matnni ikkinchi marta o'qib berish.
5. Bolalarning qayta hikoya qilishlari.

Katta guruh bolalarini hikoya qilishga o'rgatishda qayta hikoya qilish muhim o'rin egallaydi. Bolalar bog'chasining tarbiyachilari bolalarni adabiy asarlarni qayta hikoya qilishga o'rgatishga alohida e'tibor berishlari lozim. Chunki maktabda o'qishning birinchi kundan boshlab ular qayta hikoya qilishga duch keladilar Katta guruhda tarbiyachi bu malakalarni mustahkamlashi va taraqqiy etishi lozim. Yilning boshida qayta hikoya qilish bo'yicha o'tkaziladigan bir necha mashg'ulotning tuzilishi o'rta guruhdagidek bo'lishi kerak. Maktabgacha tayyorlov guruhining dasturi ham katta guruhdagi hikoya turlari ko'rsatilgan. Lekin bu yoshdagi bolalarni hali jamoa tajribalaridan hikoya tuzishga tarbiyachi tomonidan taklif etilgan mazmun bo'yicha hikoyalar to'qishga o'rgatishi kerak bo'ladi. Birinchi mashg'ulotlarda tarbiyachi hikoyaning boshlanishida o'zi gapirib beradi. Gapni suratda tasvirlangandan oldin bo'lib o'tgan voqealardan boshlaydi. Masalan, qishki ko'ngilochar tadbirlar surati bo'yicha hikoyani boshlash namunasini beradi. U sayrgacha bolalar nima qilganliklari, nima bilan shug'ullanganliklari, kim ularga ko'chaga chiqishlarini taklif qilganliklari, bolalar qanday to'planganliklari, o'zlari bilan nimalar olib chiqqanliklari haqida hikoya qilib beradi. Nutqni o'stirish mashg'ulotlari, ayniqsa hikoya qilish mashg'ulotlari har kuni o'tkaziladigan ikki mashg'ulotning birinchisi qilib o'tkaziladi. Hikoya qilish mashg'ulotlari muntazam o'tkaziladi. Haftada to'rt marta o'tkaziladigan ona tili mashg'ulotining bittasi hikoya qilishga bag'ishlangan bo'lishi zarur. Hamma dastur vazifalarini kiritish uchun oy davomida mashg'ulot turlarini xilma-xil qilish kerak. Masalan, katta guruhda bunday bo'ladi.

Birinchi oy. I hafta – predmetni tasvirlash, II hafta – qayta hikoya qilish, III hafta – suratli tasvirlash, IV hafta – o'z tajribalaridan hikoya qilish. Ikkinchi oy. I hafta – tasvirlash bo'yicha didaktik o'yin, II hafta – qayta hikoya qilish, III hafta – mayda suratlarni tasvirlash, IV hafta – esga tushirib gapiradigan tasviriy hikoya.

Hikoya qilish bo'yicha dastur materiallarini, nutqni o'stirish bo'yicha mazmunan bir-biriga yaqin boshqa mashg'ulotlarga qo'shib amalga oshirish mumkin. Masalan, mashg'ulotning ikkinchi qismi bolalarga hayvonlar haqida topishmoq, hikoya tuzdirish.

“Sher va Durroj” hikoyati

Bir o'rmonda zo'r Sher va Durroj yashar ekan. Sherning kichkinagina bolasi bo'lib, u hali yurishni bilmas ekan. Onasi uni juda yaxshi ko'rar va qumursqa halok qilmasin deb, doimo tishida tishlab yurar ekan. Kunlardan bir kuni Sher bolasini tishlab olib yurganida Durroj pIRR etib, sherning boshi ustidan uchib o'tibdi. Sher cho'chib ketibdi va bolasini qattiq tishlab olibdi. Bolasining joni og'rib, yig'lab yuboribdi. Sher bu ishdan juda xafa bo'libdi. U bolasining yara bo'lgan joyini tili bilan yalab-yalab qo'yibdi. Bolasi tinchlanibdi.

Durroj Sherni doim shunday cho'chitib yurishni odat qilibdi. Nihoyat, Sher Durroj bilan do'stlashmoqchi bo'libdi va unga: "Kel, o'rmonda birga do'st bo'lib, tinchgina yashaylik. Sen ashulalar aytib meni xursand qil. Biror kimsa seni xafa qilsa, men hamma vaqt senga yordam beray", - debdi Durroj ham.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

Kunlardan bir kuni Durroj:- “Men tuzoqqa tushdim, yordam ber!”-deb qichqiribdi. Sher yordam berish uchun yuguribdi. Qarasa Durroj uni aldabdi. U hech qanaqa tuzoqqa tushmagan ekan. Sher do’stidan xafa bo’libdi. Unga qarab: ”Yolg’on so’zlamagin, yolg’onchi el oldida uyalib qoladi”, -debdi. Ammo Durroj Sherning gapiga quloq solmabdi, yolg’onchiligini aldashini qo’ymabdi. Kunlardan bir kuni Durroj rostdan ovchi qo’rgan tuzoqqa tushib qolibdi. ”Dod! Meni tutib oldilar! Yordam ber!”-deb jon-jahdi bilan chaqiribdi. Sher uni eshitibdi. Yordamga bormoqchi bo’libdi-yu, keyin o’ylab qolibdi: ”Har doimgidek bu gal ham meni aldayotgandir. Bormayman” - debdi. Shunday qilib, Durroj o’z yolg’onchiligi tufayli do’stidan ayrilibdi va ovchi tuzog’iga tushibdi.

Qayta hikoyani takrorlash. Bu usuldan kóproq órta va katta guruhlarda foydalaniladi. Bu bola uchun ancha murakkab bólgan usuldir, chunki u tarbiyachining hikoyasiga alohida luqma tashlash (gap qistirish) bilanbirga, tóliqjumllarni ham takrorlashigato`g`rikeladi

Tarbiyachibuusuldanqayta hikoya qilishga órgatishning dastlabki bosqichida, ayniqsa, hikoya qilib bera olmaydigan bolalar bilan ishlashda kengfoydalanishi kerak. Qayta hikoya qilish jarayonida tarbiyachi bolalarga sezdirilmagan holda gavdasini tóg’irlashi, imo-ishora, kóz qarashi bilan dalda berishi mumkin, mashg’ulotning oxirida esa, albatta, bolani maqtash kerak: „Yasha, endi boshqa bolalarga hikoya qilish yengil bóladir. Faqat keyingi safarbalandroq ovozda hikoya qilgin. Bu yoshdagi bolalarga tavsiya etiladigan ertaklarning hajmi qisqa, mazmuni sodda bo’ladi. Avval eslatib o’tganimizdek, bu yoshdagi bolalar hali olam nima ekanligini bilmaydilar. Shuning uchun ularga tavsiya etiladigan ertaklar tabiat, hayvonot olami, do’stlik, mehnat ahli, jamoa, odob-axloq to’g’risida bo’lishi foydadan xoli bo’lmaydi. Bu davr bolalariga “Chivinboy”, “Qizg’anchiq it”, “Tuyaqush bilan qoplon”, “Maqtanchoq quyon”, “Rostgo’y bola”, “Arilarning g’azabi”, “Tulki bilan turna”, “Sholg’om”, “Qumursqa”, “Kaptar sovg’asi” kabi ertaklarni o’qib berish foydalidir. Bog’cha tarbiyachilari va ota-onalar oldidagi vazifalardan eng muhimi kichkintoylarni mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalashdir. Bolani yoshligidan boshlab bir ishga o’rgatish, kichkinalik vaqtidanoq unga bir yumush berib, ish qilishga odatlantirish lozim. Unga beriladigan ish ahamiyatsiz, hatto “ish” nomi berishga loyiq bo’lmasa ham undan keladigan foyda juda katta. Chunki bunday ishlar mehnatni sevishga o’rgatadi. Bola bog’chadaligidayoq o’sib, ulg’ayib yashashning asosi ish, mehnat deb kamol topmog’i zarur. Bog’chada qilinishi kerak bo’lgan yumushlarni bolaning o’zi erkin bajarasin, xatolari uchun o’zini javobgar sezsin. Ishlaganda ham uning natijasini o’ylab, fikr yuritib, to’g’ri ishlash uchun g’ayrat qilishga ko’niksin. Ammo bu borada shu narsani ham ta’kidlab o’tish kerakki, bu malakalar birdan hosil bo’lmaydi, balki asta-sekin yuzaga keladi. Lekin zaminni erta, bog’chadan boshlab qo’yish kerak. Bolada mehnat qilish malakasi vujudga kelsa, u ota-onasi, kattalarning ko’rsatib turishini kutib o’tirmay, mehnatni o’zi eplab ketaveradi. Ishga o’rganish va o’rgatishda diqqat qilinadigan yana bir narsa har ishni o’z vaqtida bajarishdir. Ishga odatlanish qancha muhim bo’lsa, ishni o’z vaqtida bajarish shu darajada muhim, balki undan ham muhimroqdir. Har ishni o’z vaqtida bajarmay, keyinga qoldirish ko’p ishlarning yig’ilib qolishiga, ko’pining yuzaki, sifatsiz ishlanishiga yoki butunlay qolib ketishiga sabab bo’ladi. Shuning uchun har ishni o’z vaqtida g’ayrat va matonat bilan bajarish lozimdir. Chunki dunyodagi barcha tirik narsalar harakatda bo’ladi, intiladi va shu tufayli hayot uchun zarur bo’lgan narsalarga yetishadi. Hatto eng zaif hisoblangan arilar, chumolilar va qushlar ham intilishda bo’lib, yozda qish g’amini yeydilar. Bu yoshdagi bolalar hayvonlar o’rtasidagi o’zaro ahillik va do’stlik kabi xislatlarni bilishni istaydilar. Hayvonot olamida do’stga mehribonlik ko’rsatish, bir-biriga g’amxo’r bo’lish, yordam qo’lini cho’zish bor ekanligi “Arslon bilan it”, “Tuyaqush bilan qoplon”, “Echki, qo’y va bo’rilar” kabi ertaklarda beriladi. “Tuyaqush bilan qoplon” ertagiga nazar tashlaydigan bo’lsak, unda xuddi odamlar orasida bo’lganidek, hayvonlar o’rtasida ham bir-birlariga yordam berish, ayniqsa, boshlariga kulfat tushganda yurakdan, samimiy ko’maklashish g’oyasi yotadi: Qoplonning boshiga musibat tushibdi.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

Tomog'iga katta bir suyak qadalib qolibdi. Dod-faryod qilibdi. Tuyaqush yordamga kelib:– Osmonga qarab og'zingni ochib tur, men suyakni olib qo'yay, – debdi qoplonga. Qoplon osmonga qarab og'zini ochib turibdi. Tuyaqush uzun tumshug'ini qoplonning og'ziga solib, tiqilib turgan suyakni sug'urib tashlabdi. Qoplonning ko'zlari ravshan bo'lib, o'limdan qutulibdi. Biroz joni orom olgandan keyin qoplon tuyaqushga qarab shunday debdi:– Sen mard ekansan, menga yaxshilik qilding, endi ikkalamiz do'stbo'lamiz, zarur vaqtda bir-birimizga yordamga kelamiz, debdi. Tuyaqushga bu gap ma'qul bo'libdi. Tuyaqush bilan qoplon ikkalalari do'st bo'libdilar. Xalqda “O'zga bilan do'st bo'ldingmi, bir umrga bo'l, uni yaxshi-yomon kunlaringda sinama va unga riyokorlik ko'rsatma,” degan gap bor. Tuyaqush bu yo'ldan bormabdi. Oradan ko'p vaqt o'tibdi, kunlardan bir kun u qoplonni sinamoqchi bo'lib, jo'rttaga:

– Voy dod, o'lyapman, qoplon, meni qutqar! – deya bor ovozi bilan qoplonni yordamga chaqiribdi. Qoplon chin so'zli, do'stga sadoqatli, g'amxo'r va mehribon bo'lganligi uchun zudlik bilan tuyaqushning oldiga shox-butoqlar orasidan ustidagi junlari yulini, harsillab yetib kelibdi. Lekin u tuyaqushning yuzidagi tabassumni ko'rib hayron bo'libdi. Tuyaqushning surbetlik bilan “Ko'rmaganimga ancha vaqt bo'ldi, ahd-paymonimiz esingdan chiqib qolmadimi, deb sinabko'rmoqchi edim”, degan gapidan qoplon qattiq ranjibdi, dili og'ribdi, do'stidan ko'ngli qolibdi. Do'stini aldagan o'zini aldagan bo'ladi. Sen birovni bir marta aldadingmi, tamom, u senga ikkinchi marta ishonmaydi. Tuyaqush bilan ham xuddi shunday bo'libdi. Boshqa kuni bo'ri uni ushlab yeb qo'ymoqchi bo'lib turganida, qancha baqiribchaqirmasin, qoplon tuyaqushning ovozini eshitsa ham, “Do'stim jo'rttaga dodlayapti,” deb o'ylabdi va uning oldiga bormabdi. Tuyaqush bo'riga yem bo'libdi. Qo'li ochiq bo'lish, saxiylik qilish, do'stga sodiqlik namunasini ko'rsatish bu davrda tinglaydigan ertaklarning katta qismini tashkil etishi kerak. “Tulki bilan Turna” ertagiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu holning butunlay teskarisini ko'ramiz. Dunyoda tulki zotidan mug'ambir, pismiq, aldamchi, riyokor bo'lmasa kerak. Ko'p ertaklarda turna insonga yaqin yuradi, unga ko'maklashadi, yordam beradi, saxiylikda ibrat ko'rsatadi. Ertakda tulki va turnaning bir-birlarini uylariga chaqirib mehmon qilishlari haqida gap boradi. Maqtanchoq, mug'ambir, ayyor tulki oddiy, sodda turnani uyiga chaqirib:– Albatta kelgin, jonginam, albatta, azizam, yaxshilab mehmon qilaman! – debdi. Ba'zan yangi do'stingni fe'l-atvori qanday ekanligini yaxshi bilmay yurakdagi borini oshkor qiladigan bolalar kabi turna ham tulkiga ishonadi, chinakamiga meni mehmon qilar ekan-da, degan o'y-xayol bilan uning uyiga keladi. Tulki shirguruch pishirib, uni likopchada turnaning oldiga qo'yadi. U, uzun tumshug'i bilan likopchaga taq-taq uradi, ammo hech narsa yeya olmaydi. Ayyor tulki esa bir zumda shirguruchni o'zi yeb bo'ladi. Ertakda turnaga alam qiladigan joyi shuki, tulki o'zi pishirgan taomni o'zi yeb, yana xushomadgo'ylik bilan: – Aybga qo'shmaysan-da, jon do'stim! Yaxshilab mehmon qilishga boshqa narsa topa olmadim! – deya surbetlik qilib turishi bolalarning qahr-g'azabini keltiradi. Ularni hayotda tulki kabi ochko'z, aldamchi bo'lmaslikka da'vat etadi. Ertakda turnaning ham bo'sh kelmasligi, tulkini uyiga chorlab, mo'ndiga o'zi tayyorlagan ovqatni quyib, uni bir zumdayoq, uzun tumshug'i bilan o'zi yeb qo'yishi kichkintoylarni xursand qiladi. Ularda qilmish-qidirmish, sen birovga nima qilsang, senga ham, albatta, qaytib keladi, degan tushuncha hosil bo'ladi.

Xullas, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar o'zlari tinglagan ertaklari yordamida atrof olam bilan tanishib, nima yaxshi-yu, nima yomonligini bilib o'saveradilar. Xalq og'zaki poetik ijodidagi eng boy va rang-barang janrlardan biri ertakdir. Ertak xalq turmushi, urinishi, mehnati, yuksak ideallariga maskanligi, xullas, xalq hayotining barcha jabhalari bilan uzviy bog'langanligi bilan ham g'oyatda e'tiborlidir. Zero, ertaklar hech vaqt bekorchi, ermak narsalar bo'lmay, ular hamma vaqt zo'r ijtimoiy va tarixiy ahamiyatga egadir. Bahaybat maxluqlar haqida hikoya qiluvchi ertak va afsonalarda u yoki bu davrning ijtimoiy, hayotiy kurashlari, xalq manfaatlari o'zining badiiy ifodasini topgan. Ana shu buloq singari jo'shqin, ummondek tubsiz, bebaho xazina bo'lmish ertak o'zining g'oyaviy mazmuni, badiiy qudrati

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

bilan hamisha mehnat ahlini o`ziga maftun etib kelgan. Ertakning muhim xususiyatlaridan biri uning har doim xalq hayoti, kurashi, tarixi, psixologiyasi, dunyoqarashi, urfodatlari bilan juda yaqin bog`langan bo`lishi, insonlarga axloqiy va ma`naviy yo`ldosh bo`lib kelishidadir. Ertak — insonning ma`naviy va jismoniy kuchiga ishonch ruhi bilan to`lib-toshgan. U insonga butun real va tabiatdan tashqari kuchlarning bo`ysunganini ifodalaydi. Ertaklarda inson tabiat va ijtimoiy hayotda o`ziga dushman bo`lgan kuchlarga qarshi kurashda doimo g`olib chiqadi. Xalq o`z ertaklarida badiiy obrazlar orqali o`z dunyoqarashi, axloq normalari va boshqa ijtimoiy masalalarni o`rtaga qo`ygan va o`zicha hal etgan. Bu fikrlar, intilishlar, orzu-havaslar ommaning didiga, ruhiga yaqin obrazlar orqali ravon, jonli tilda yetkazib berilgan. Ertaklar sodda va tushunarli bo`lgani uchun katta va kichikka, savodli va savodsiz kishiga tez yetib boradi. Ular orqali insonning ijtimoiy axloq normalari ham shakllanadi. Ba`zan bu axloqiy normalar masal tarzida, allegorik ravishda ifodalanib kelgan. Bu hol, ayniqsa, hayvonlar haqidagi ertaklarda aks etgan. Xalqning kelajakka ishonchi, adolatning adolatsizlik ustidan g`alabasi, yorug`likning zulmatni yengishi, ozod va baxtiyor hayotga ergashish kabi g`oyalari ertaklarda yorqin obrazlar orqali tasvirlangan. Ana shunday xalq prozasi ertakda, ayniqsa, romantik tasvir kuchli bo`ladi. Unda qahramon jabr-jafo chekadi. Lekin oxiri baxtiyor bo`ladi, tengsiz jangda, kurashda g`olib chiqadi. Bunda romantik yechim — xotima xalqning idealidan, uning orzu-umididan kelib chiqadi. Busiz mumkin emas, ertak xalqning o`z kuch-qudratini anglab olishga madad berishi, uni baxtiyor kelajakka tomon ilhomlantirishi, kurashga chorlashi va shu kurashning (abstrakt bo`lsa-da) g`alabasiga ishontirishi kerak. Bunday optimistik yo`nalish turli ertaklar (hayvonlar haqidagi ertaklarda ham, sehrli-afsonaviy ertaklarda ham, ijtimoiy-maishiy ertaklarda ham, hayotiy ertaklarda ham)da ufurib turadi. Misol tariqasida „Kambag`al qiz, „Podachining qizi, „Zumrad va Qimmat, „Ota vasiyati, „Ko`k qo`chqor, „Uch og`ayni botirlar, „Kambag`al- qashshoq, „Ahmadlar— kabi ertaklarni olib ko`raylik. Bunday ertaklarda mehnatkash xalqning mung va zori, qayg`u va hasrati ham, quvonchi va baxtli, shod va erkin kunlarga intilishlari ham o`z ifodasini topgan, yaxshi yashash haqidagi ezgu niyat, orzu- umidi aks etgan. O`tmishda qashshoq yashagan, og`ir mehnatdan tinka-madori qurigan, och-yupun, bir parcha nonga zor bo`lgan kishilar farovon turmush, yaxshi kunlar haqida orzu istaklarini o`z og`zaki ijodlari orqali bayon qilganlar. Mehnatkash xalqning turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan bunday ertaklarning qahramonlari turli toifadagi kishilar: biri cho`ri, biri ishsiz qashshoq, biri podachi, biri ovchi mergan. Lekin barchasining ham intilishi va niyati bir: yaxshi yashash, sevgilisi visoliga yetish, el-yurt xizmatiga kamarbasta bo`lish bu yo`lda duch kelgan to`siq va g`ovlardan dovyuraklik va jasorat ko`rsatib o`tishdan iboratdir. Ertak qahramonlari poklik, aql-zakovat, tadbirkorlik, qahramonlik bilan ish ko`rganliklari uchun ham omadlari keladi, baxtli bo`ladilar. Kichkintoy bolalarga tavsiya etiladigan ertaklarning hajmi qisqa, mazmuni sodda bo`ladi. Avval eslatib o`tganimizdek, bu yoshdagi bolalar hali olam nima ekanligini bilmaydilar. Shuning uchun ularga tavsiya etiladigan ertaklar tabiat, hayvonot olami, do`stlik, mehnat ahli, jamoa, odob axloq to`g`risida bo`lgani ma`qul. Bu davr bolalariga „Chivinboy, „Qizg`anchiq it, „Tuyaqush bilan qoplon, „Maqtanchoq quyon, „Rostgo`y bola, „Arilarning g`azabi, Tulki bilan turna, „Sholg`om, „Qumursqa, „Kaptar sovg`asi kabi ertaklarni o`qib berish foydalidir. MTT tarbiyachilari va ota-onalar zimmasidagi eng muhim ishlardan biri kichkintoylarni mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalashdir. Bolani yoshligidan boshlab mehnatga o`rgatish, kichkinaligidanoq unga bir yumush berib, ishga odatlantirish lozim. Unga buyuriladigan ish ahamiyatsiz, hatto „ish deyishga loyiq bo`lmasa ham, uning natijasi muhimdir. Oqibatda bolada yoshligidan mehnatni sevish, uddaburonlik, tirishqoqlik kabi fazilatlar shakllana boradi. Bola bog`chaga borganda hayotda mehnatsiz yashab bo`lmasligini ma`lum darajada idro` etgani ma`qul. Bog`chada bajarishi kerak bo`lgan yumushlarni bolaning o`zi erkin ishlasin, xatolari uchun o`zini javobgar sezsin. Yosh qalb o`zi bajarayotgan ishning natijasini anglasin, fikr yuritishga, to`g`ri ishlashga, g`ayrat qilishga ko`niksin. Ammo bolada bunday malakalar birdan hosil bo`lmaydi, balki asta-sekin yuzaga keladi. To`g`ri tarbiyani juda

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

erta, oiladan, bog`chadan boshlash kerak. Bolada mehnat malakasi vujudga kelsa, u ota-onasi, kattalarning ko`rsatib turishini kutib o`tirmay, o`zi eplab ketaveradi. Ishga o`rganish va o`rgatishda e`tibor beriladigan narsa har ishni o`z vaqtida bajarishga odatlantirishdir. Ishga odatlanish ham, uni o`z vaqtida bajarish ham tarbiyada katta ahamiyatga ega. Har ish o`z vaqtida qilinmasa, ko`p yumushlar yig`ilib qoladi, yuzaki, sifatsiz, palapartish bajariladi. Maktabgacha ta`lim yoshidagi bolalarga o`qib, hikoya qilib beriladigan ertaklar juda muhimdir. Shuning uchun har qanday ishni o`z vaqtida g`ayrat va matonat bilan ado etish lozim. Chunki dunyodagi barcha tirik mavjudot harakat qiladi, intiladi va shu tufayli hayotda zarur bo`lgan narsalarga yetishadi. Hatto arilar, chumolilar va qushlar ham tinimsiz mehnat qilib, yozdan boshlab qish g`amini yeydilar. Shu o`rinda xuddi inson kabi tinib-tinchimas, mehnatkash qumursqalar va ular haqida xalq to`qigan „Qumursqaertagi o`qib, hikoya qilib berilsa, samarasi yaxshi bo`ladi. Hayot shunday: kim tadbirkorlik bilan erinmay ko`p mehnat qilsa, sog`lom, boy-badavlat yashaydi, xor-zor bo`lmay umr kechiradi. Qumursqa maqtanchoq emas, u oddiy va sodda. Shu fazilatlar bilan ajralib turadi. Savol-javoblarda muz, bulut, quyosh, yomg`ir, yer, o`t, mol, bo`ri, mergan-u sichqon kabilardan ham qumursqa ustun chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1 Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O`zbekiston NMIU, 2017. – 488 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O`zbekiston NMIU, 2016.

3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta`minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: —O`zbekiston NMIU, 2017. – 48 b.

4 O'zbekiston Respublikasi vazirlar maxkamasining “Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ustavini tasdiqlash” haqida 2017 yil 21 noyabrdagi 929-son qarori.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-son 20.04.2017y

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim standartlari 802-sonli qarori.

Ilmiy rahbar M.Narziqulov